

## BANKLARNING KASSA OPERATSIALARINI VA ULARNI HISOBGA OLIISH

*Komilov Omadjon Xursandbek O'g'li*

*Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti iqtisodiyot fakulteti*

*III-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqola banklarda kassa operatsiyalari va ularni tashkil etishni o'rganadi, kassa turlari, kassa operatsiyalari qanday tartibda ishlashi, virtual pullar va naft pullar aylanishi haqida organdi.

**Annotation:** This article describes cash operations in banks and their organization, types of cash registers, how cash operations work, circulation of virtual money and cash.

**Kalit so'zlar:** banklarda kassa operatsiyalari, kassa turlari, pul operatsiyalari

Iqtisodiyot rivojlanishga albatta tijorat banklarning katta hissasi bor. Tijorat banklari pul aylanishi, pullarni saqlash, hisob raqamlar ochish, yurutish, kreditlar berish va yana boshqa birqancha turdagi faoliyot bilan shug'ullanadi. Tijorat banklarida asosiy qismlaridan biri bu kassa hisoblanadi, ushbu bankning barcha naft pul va naft pulsiz operatsiyalarni kassa bo'limi ushbu faoliyat bilan shug'ullanadi.

Pul oboroti naft pul oboroti hamda naftsiz pul oborotini o'z ichiga oladi. Naft pulsiz pul oboroti butun pul oborotining 80-90%ini tashkil etadi. Naft pulsiz pul oboroti asosan korxon va tashkilotlar, ular bilan soliq nazorati, sug'urta, pensiya va boshqa fondlar bilan bo'ladigan hisob kitoblarida o'z aksini topadi. Aholi va turli korxon va tashkilotlar, aholi guruhlari o'rtasidagi hisob- kitoblar naft pul yordamida amalga oshiriladi. Masalan, aholiga ish haqi, nafaqa, mukofot, gonorar, xizmat safari xarajatlari to'lashda va, aksincha, axoli tomonidan savdo tashkilotlari, maishiy xizmat, madaniy oqartuv tashkilotlari, dexqon bozori, oziq-ovqat va kiyim-kechak bozorida aholi guruhlari o'rtasidagi aloqalarda naft pul ishtirok etadi.

Biz «Korxon va tashkilotlar o'rtasidagi naft pulsiz hisob-kitoblar» bobida naft pulsiz hisob-kitoblarning mazmuni, ularni tashkil etish qonun-qoidalari, bu operatsiyalarni hisobga olish va rasmiylashtirishni ko'rib chiqqan edik. «Kassa operatsiyalari, ularni hisobga olish va rasmiylashtirish» mavzusida kassa ishlarining tijorat banklarida tashkil etilishi, kassaning kiritim va chiqim operatsiyalari, ularni hisobga olishini ko'rib chiqamiz.

Har bir tijorat bankida korxon va tashkilotlarga kassa xizmatini ko'rsatish uchun bir qancha kassalar tashkil etiladi, ya'ni bank muassasasi o'z tarkibida tarkibiy bo'linma-kassa operatsiyalari bo'limiga ega. Kassa operatsiyalari bo'limida bajariladigan kiritim va chiqim kassa operatsiyalari «O'zbekiston respublikasi bank

muassasalarida emissiya-kassa ishi, pul tushumini inkassatsiya qilish va boyliklarni tashishga doir Markaziy bankning 23-sonli yo'riqnomasi asosida tashkil etiladi.

Pul yoki boshqa boyliklarni oyliklarni qabul qabul qili qilish va berish uchun kassa operatsiyalari bo'limi tarkibida quyidagi kassalar tashkil etiladi. Kirim kassasi, chiqim kassasi, kirim-chiqim kassasi, maydalab berish kassasi, kat'iy hisobda turadigan blankalarni berish kassasi, kechki kassalar tashkil etiladi. Ko'rsatib o'tilgan kassalar kassa operatsiyalari hajmi va kassa xodimlarining belgilangan shtatidan kelib chiqqan holda bank muassasasi farmoyishiga binoan tashkil etiladi. Yirik bank muassasalarida kassa operatsiyalari bo'limini boyliklar bilan ishlashdan ozod etilgan xodim, ya'ni kassa operatsiyalari bo'limining boshlig'i boshqarishi lozim. U kassa apparati ishi ustidan nazorat o'matadi va uning ishiga rahbarlik qiladi hamda kassa ishini to'g'ri tashkil qilish, bank muassasasidagi barcha boyliklarning ishonchli va to'liq saqlanish uchun rahbar bilan teng darajada javob beradi.

Kassa operatsiyalari bo'limlarining boshliqlari egallab turgan lavozimlariga Markaziy bank va tijorat banklarning viloyat shqarmalarida tayinlanadilar, tasdiqlanadilar va undan ozod etiladilar. Bo'lim boshlig'i yoki kassa mudiri lavozimiga bank tizimida kamida 3 yil ishlagan shaxslar tayinlanadi

Bank muassasalarining rahbarlari kassalar va pul omborlarida boyliklar bilan ishlashning belgilangan qoidalarini ta'minlovchi zarur shart-sharoitlarni ta'minlashlari lozim. Banklardagi kassa tarmoqlari «Kassa tarmoqlarini loyihalashtirish va o'rnatishning texnikoviy talablari»ga muvofiq holda Jihozlanadi, uni boshqa xizmatlardan ajratib qo'yish va qoidaga ko'ra, binoning birinchi qavatida joylashtirilishi lozim.

Begona shaxslarning pul omborlari joylashgan Joyni kuzatishlari va o'rganishlari uchun hech qanday imkoniyat bo'lmasligi kerak. Kassa binosining eshiklari kun bo'yi ichkaridan berkitilgan bo'lishi lozim. Eshiklarga tashqarini ko'rish uchun kichkina maxsus oynacha o'rnatilgan bo'lish kerak. Kassa tarmog'ining barcha derazalari kechki payt pardalar bilan to'silgan bo'lish shart.

Operatsiya kassasi har bir kassirning ish joyi kabina o'matish orqali ajratib qo'yilishi lozim. Bunday holda boyliklar saqlanishi ustidan mas'ul bo'lgan shaxslarga kassirlar ishini kuzatib turishiga imkon tug'iladi.

Kassirlar stolida qulflanadigan tortmalar bo'lishi kerak, uning kod nomerini faqat kassirlar bilishi kerak. Kassirlar kun davomida boyliklarni saqlash uchun seyflar, metall shkaflar, boyliklarni tashish uchun aravachalar bilan ta'minlanishi lozim. Mijozlarga xizmat ko'rsatiladigan darchalarga ichkari tomonidan qulflanadigan eshikchalar o'rnatilishi lozim.

Kassirlarning o'z pullari, ustki kiyimlari hamda shaxsiy narsalari kassa ARX tarmog'ida, biroq kassa xonasidan tashqarida o'rnatilgan shkaflarda yoki maxsus ajratilgan xonalarda saqlanishi lozim.

Operatsiya kassalarining kassirlari kirim va chiqim kassa hujjatlarini imzolash vakolatiga ega bo'lgan hisob-kassa xodimlarining imzolari namunalari bilan, kirim-chiqim kassa operatsiyalarini rasmiylashtirish bilan shug'ullanadigan hisob- operatsiya xodimlari esa kassirlar imzosining namunalari bilan ta'minlanishi kerak. Imzolar namunalari, tegishli xodimlarga o'z vaqtida berish va ular bekor qilingach qaytarib olish ustidan nazoratni bank muassasasining bosh buxgalteri amalga oshiradi. Ro'yxatlar har yili 1 yanvar holatiga ko'ra yangilanib turiladi. Umuman, banklarda kassaning kirim va chiqim operatsiyalarini tashkil qilish uchun yangi hisobvaraqlar rejasining «Aktivlar bo'limida bir nechta hisobvaraqlar ochilgan. Ilgari kassa operatsiyalari I tartibli 03 hisobvaraqda olib olib borilar edi. 03 hisobvarag'i o'z ichiga bir nechta ikkinchi tartibli hisobvaraqlarni olar edi. 030-Markaziy bank kassasi 031-Tijorat bank kassasi 032-Yo'ldagi pullar Hozirgi yangi hisobvaraqlar rejasida «naqd pullar va kassa hujjatlari» 10100 asosiy hisobvarag'ida kassa operatsiyalarining hisobi olib boriladi. Bu asosiy hisobvaraqlar bo'yicha bir nechta yordanchi hisobvaraqlar - subschet ochilgan: 10101 kassadagi pullar: 10109-puldagi naqd pullar. Har ikkala hisobvaraqlar ham mazmun jihatidan aktivdir, ularda qoldiq va mablag'larning ko'payishi debet tomonida, mablag'larning kamayishi esa hisobvaraqlarning kredit tomonida aks ettiriladi

**Xulosa.** Men ushbu maqolamdan kelib chiqib shuni aytmoqchiman, bankning kassa tizimidagi bo'limlarni yanada soddalashtirish kerak deb hisoblayman. Kassadagi kassirlarga birlashtirilgan temir shkaf, kodli seyflar va shu kabi boshqa buyumlarga faqatgina kassirlar emas alohida yana bir boshqa kishilarni masul qilish lozim. Buning natijasida foydalaniladigan buyumlarning nazorati kuchayadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019 y. 11-oktabr.
2. «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019- y. 5-noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasida «Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish haqida»gi 60-sonli Nizom. 2020 y. 12 yanvar
4. O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisob varaqlari haqidagi 1- sonli yo'riqnomasi. 2020 y. 6 oktyabr